

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

YORQULOV MUHAMMADMUROD AXMAD O‘G‘LI

**HUDUDiy TURIZMNI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH USULLARINI
TAKOMILLASHTIRISH
(Samarqand viloyati misolida)**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)
on economic sciences**

Yorqulov Muhammadmurod Axmad o‘g‘li

Hududiy turizmni strategik rivojlantirish usullarini takomillashtirish (Samarqand viloyati misolida)..... 5

Ёркулов Мухаммадмурод Ахмад угли

Совершенствование методов стратегического развития регионального туризма (на примере Самаркандской области) 27

Yorkulov Mukhammadmurod Akhmad ugli

Improving methods of strategic development for regional tourism (on the example of Samarkand region) 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

YORQULOV MUHAMMADMUROD AXMAD O‘G‘LI

**HUDUDIIY TURIZMNI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH USULLARINI
TAKOMILLASHTIRISH
(Samarqand viloyati misolida)**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt4291. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.univ-silkroad.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Turdibekov Xasan Ibragimovich**
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Mirzayev Abdullajon Topolovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti**

Dissertatsiya himoyasi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022. I.145.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "29" avgust soat 18:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel: (99890) 213-89-07; Faks:(99866) 240-67-68, e-mail: science-dept@univ-silkroad.uz, info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya bilan "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (____-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel.: (99866) 240-67-68; Faks: (99866) 240-67-68; e-mail: info@univ-silkroad.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" avgust kuni tarqatildi (2025 - yil "29" avgustdagi 34-raqamli reestr bayonnomasi).

A.A.Eshstayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

O.M.Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

B.Sh.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mintaqaviy turizm ko‘plab mamlakatlarda barqaror iqtisodiy o‘shish va hududiy rivojlanishning asosiy omillaridan biriga aylandi. Pandemiya keyingi tiklanish, sayohatlarga, ichki turizmga va raqamli texnologiyalarga bo‘lgan qiziqishning oshishi sharoitida ushbu sohada strategik boshqaruv usullari tubdan o‘zgarib bormoqda. Jahon mamlakatlari brending, rejalashtirish, raqamlashtirish va turistik resurslardan barqaror foydalanish borasida innovatsion yondashuvlarni joriy etmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) va Jahon sayohat va turizm kengashining (WTTC) ma’lumotlariga ko‘ra, barqaror rivojlanish, nomarkazlashuv va raqamli transformatsiya strategiyalari samarali amalga oshirilsa “2025-yildan 2030-yilgacha mintaqaviy turizmning yillik o‘shish sur’ati 6–8% gacha yetishi mumkin”¹. Shu munosabat bilan, barqaror va daromadli mintaqaviy turizm faqat davlat, biznes va mahalliy hamjamiyatlarning faol ishtiroki bilan amalga oshishi mumkin. Bu borada, mintaqaviy turizmni strategik rivojlantirish usullarini takomillashtirish marketing va infratuzilmadan tortib ta’lim, ekologiya va ijtimoiy innovatsiyalargacha bo‘lgan kompleks yondashuvni talab qiladi.

Jahonda mintaqaviy turizmni strategik rivojlantirish usullarini takomillashtirish dunyoning ko‘plab davlatlari siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Shu bois, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ushbu jarayonda barqarorlik, raqamlashtirish va inklyuziv yondashuvlarni integratsiya qilish zarurligini ta’kidlamoqda. Bu borada, hududlar o‘zining mahalliy resurslari va madaniy merosiga moslashtirilgan turistik mahsulotlarni mustaqil shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu jarayonda turizmni strategik rivojlantirishning mezonlari va ko‘rsatkichlarini, omillarini aniqlash, ularni alohida yo‘nalishlar bo‘yicha guruhlash, iqtisodiy salohiyatdan foydalanish sinergetik ta’sirini baholashni takomillashtirish, mahalliy innovatsiyalar, klasterli modellar, raqamli infratuzilma, big data tizimlari, real vaqt rejimidagi boshqaruv hamda tabiiy, madaniy va raqamli resurslar uyg‘unligiga asoslangan kompleks yondashuv mintaqaviy turizmning barqaror va daromadli rivojlanish kabi masalalarga oid tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O‘zbekistonda mintaqaviy turizmni strategik rivojlantirish usullarini takomillashtirish davlatning barqaror, diversifikatsiyalashgan va raqobatbardosh turizm sohasini shakllantirishga bo‘lgan intilishini aks ettiradi. Shu tariqa, amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ichki va xalqaro turizmni rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish, mahalliy hamjamiyatlar va xususiy sektorni turistik faoliyatga faol jalb etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Buning uchun yo‘l, kommunikatsiya, mehmonxonalar qurayapmiz. Endi xizmat turlarini ko‘paytirishni o‘ylash kerak. Kelgan mehmon vaqtini qanday o‘tkazadi, nimalar xarid qiladi? Shu talablardan kelib chiqib, xizmatlar taklif qilish, bu yerning tabiati

¹<https://www.oecd.org/en/publications/2024/07/oecd-tourism-trends-and-policies-2024>
<https://wttc.org/research/economic-impact/economic>

va sharoitini chet ellarda keng targ'ib etish kerak"². Ushbu vazifalarni bajarishda turizm sohasini strategik rivojlantirish samaradorligini oshirishning qo'shimcha imkoniyatlarini asoslab berish, hududlarni strategik rivojlantirishni takomillashtirish, har bir hududning noyob tabiiy va madaniy salohiyatini ochib berishga yo'naltirilgan turistik klasterlarni yaratish, elektron platformalarni, intellektual marshrut tizimlarini joriy etish, gidlarni sertifikatlashtirish va turistik infratuzilmani barqarorlik, innovatsion hamda ichki va xorijiy turistlar ehtiyojlariga yo'naltirilgan prinsiplari asosida rivojlantirish, turistik korxonalar strategik salohiyatining samaradorligini oshirishda mavsumiy va hududiy omillar ta'sirini baholashga doir nazariy va amaliy qiymatga ega ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 18-iyuldagi PQ-269-son "Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi³.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turizm xizmatlar bozorini rivojlantirishning nazariy-metodologik masalalari M.Porter, L.Dweyer, Ch.Kim, G.Crouch, B.Bramvel, V.I.Azar, I.T.Balabanov, A.I.Balabanov, M.B.Birjakov, V.I.Nikiforov, V.S.Novikov, V.V.Kavalyov va A.Yu.Chelchenko⁴ kabi xorijlik

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi Shahrisabz tumaniga qilgan safaridagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/8244>.

³ <https://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

⁴ Porter M. The competitive advantage of nations, Macmillan: London. -1990. 250 pp.; Dwyer L. and Kim Ch. "Destination Competitiveness: determinants and indicators" Current Issues in Tourism, 2003, 6 (5): 369-414 pp.; Crouch G. I., Tourism, competitiveness, and societal prosperity //Journal of business research. – 1999. – T. 44. – №.

olimlar tomonidan o'rganilgan. Mamlakatimizda ham turizm sohasini rivojlantirishning nazariy-uslubiy masalalariga bir qator iqtisodchi olimlar, jumladan, Q.X.Abduraxmonov, N.Tuxliyev, I.S.Tuxliyev, A.A.Eshtayev, B.Sh.Safarov, X.I.Turdibekov, B.X.To'raev, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, N.S.Ibragimov, U.R.Matyakubov, A.T.Mirzayev, A.A.Qodirov, D.A.Nasimov, N.U.Arabov⁵ va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Ta'kidlash lozimki, turizm sohasining strategik rivojlanish tendensiyalarining ayrim jihatlari, shuningdek, turistik hududlarning strategik imkoniyatlaridan samarali foydalanish, raqobatbardoshligini, jozibadorligini oshirish, turizm sohasi marketingi va reklamasi bilan bog'liq masalalarga keng to'xtalib o'tganlar. Bu borada, salmoqli iqtisodiy-ijtimoiy natijalar kuzatilgan bo'lsa-da, tadqiqotlarda turizm sohasini strategik rivojlantirishning hududiy masalalari hamda samaradorligini oshirishga oid izlanishlar yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Shu sababli, tahlil qilingan mavzuning yetarlicha o'rganilmaganligi hududiy turizmni strategik rivojlantirish usullarini takomillashtirish, strategik rivojlanishni modellashtirish tizimining samaradorligini baholashni takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu esa, tanlangan mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining №SRITU-18/02-«Turizm

3. – 137-152 pp.; Bramwell B., Lane B. Critical research on the governance of tourism and sustainability // Journal of Sustainable Tourism. 2011. № 19(4/5). 411–421 pp. Azar V.I., Tumanov S.Yu., Экономика туристского рынка. — М.: ИПКГ, 1998.—239 с.; Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. Учеб. Пособие. — М.: Финансы и статистика, 2003. — 176 с.; Балабанов, И.Т. Финансовый анализ и планирование хозяйствующего субъекта: монография. — Москва: Финансы и статистика, 2002 – 207 с.; Биржаков М. Б., Никифоров В. И. Индустрия туризма: Перевозки. -СПб., 2001. – 399 с.; В.С. Новиков. Инновации в туризме. Учебное пособие – М.: Туризм, 2010. — 203 с. Чаленко А.Ю. О понятии потенциала в экономических исследованиях / М.: Капитал страны, 2011.; Ковалев, В.В. Анализ баланса, или как понимать баланс / В.В. Ковалев — М.: Проспект, 2008. – 448с.

⁵Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма // учебное пособие. – Т.: Фан ва технология, 2014. - 332 б., Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегия развития. – O'zbekiston milliy ensiklopediasini, 2006., Tuxliyev I.S., Qudratov G'.X., Pardaev M.Q. Turizmni rejalashtirish // Darslik. -T.: "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2010. – 238 b., Eshtayev A.A. Turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. // T: Fan, 2011. T. 1. № 1. 280 b., Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari: monografiya. // T.: Fan va texnologiya, 2016. T. 1. № 1. 184 b., Turdibekov X.I. Strategic Development of Tourism Taking into Account Regional Features of the Republic of Uzbekistan, 2020. 7-8 pp. Тураев Б.Х. Организационно-экономические механизмы регионального туризма // Ташкент: Фан, 2009. Т. 1. № 1. С. 153., Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O'zbekiston Respublikasi misolida) // iqt. fan. doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. -Samarqand, 2019. 68 b., Norchayev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari // iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: TDIU, 2021. – 246-b., Ibragimov N.S. O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda destinatsion menejment konsepsiyasini qo'llash // dis. ... i.f.n. Buxoro, 2006. T. 1. № 1. 183 b., Matyakubov U.R. Orolbo'yi mintaqasida turizmni strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy va metodologik yo'nalishlarini takomillashtirish // DSc. diss. avtoref. – Urganch, 2022. – 78 b., Mirzayev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreasiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish // DSc. diss. avtoref. – T.:, 2021. 68 b., Qodirov A.A. Hududlarda ekologik turizm salohiyatini barqaror rivojlantirishning uslubiy-metodologik asoslarini takomillashtirish // Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2024-yil 22-iyun., Nasimov D.A., Comparative Analysis of Employment Tendencies in the CIS Countries. - Economic and Social Development: Book of Proceedings, 2016. – 15-16 pp. Arabov N.U., Mehnat bozori infratuzilmasi (o'quv qo'llanma). – 2020. 6 b.

va madaniy meros sohasini samarali rivojlantirishning innovatsion usullari» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga mos keladi.

Tadqiqotning maqsadi hududiy turizmni strategik rivojlantirish usullarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

“hududiy turizmni strategik rivojlantirish” tushunchasini mazmun va mohiyatini tahlil etish va nazariy qarashlarni tizimlashtirish;

hududiy turizmni strategik rivojlantirish usullarini takomillashtirishning mohiyatini aniqlashga doir yondashuvlar va ulardan foydalanish mexanizmining xususiyatlarini tahlil etish;

hududiy turizmni strategik rivojlantirishda resurslararo turli ko'rsatkichlar tizimini o'rganish;

hududiy turizmni strategik rivojlantirish usullarini takomillashtirishda yaratilgan yalpi mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi omillarni modellashtirish tizimini takomillashtirish;

hududiy turizmni strategik rivojlantirish usullarini o'rganish va samarali foydalanish tizimini taklif etish;

hududiy turizmni strategik rivojlantirish usullarini takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqish;

turizm industriyasining o'rta muddatli istiqbolda strategik rivojlanishiga oid ilmiy asoslangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqish;

hududiy turizmni strategik rivojlantirish usullarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida mamlakatimiz, xususan Samarqand viloyatida turizm sohasidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib hududiy turizmni strategik rivojlantirish usullarini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada induksiya-deduksiya, tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik va taqqoslama tahlil, guruhlash, ekonometrik tahlil va prognozlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyatida turizm sohasidagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yo'lga qo'yishda, har yili 22 ta mehmonxona, 49 ta oilaviy mehmon uyi, 5 ta xostel va 3 ta boshqa turdagi joylashtirish vositalari faoliyatini tashkil etish maqsadida Payariq, Samarqand, Tayloq va Urgut tumanlaridagi eng ko'p turistlar tashrif buyuradigan obyektlarda mavjud shart-sharoitlarni o'rganish va uning natijasidan kelib chiqib kamchiliklarni bartaraf etish haqida takliflarni “Ipak yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tomonidan tayyorlash asosida “Choshtepa” turizm maskanini ishga tushirish, “Mironqul” MFY hududida ekoturizm dam olish maskani faoliyatini yo'lga qo'yish, “Omonqo'ton” MFY hududida dam olish maskanini tashkil etish bo'yicha takliflar asoslangan;

turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada yaxshilash maqsadida joylashtirish vositalari, oilaviy mehmon uylari, sanatoriy va pansionatlar xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil qilish uchun turizm sohasidagi nodavlat ta'lim tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlarga har yili 2 milliard so'mgacha grant mablag'larini ajratish bo'yicha takliflar dalillangan;

respublikaning turizm salohiyatidan hamda mavjud resurslar va imkoniyatlardan to'liq va samarali foydalanish, turizm sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida turoperatorlar tomonidan ko'rsatilayotgan turizm xizmatlari bo'yicha xorijiy hamkorlarga taqdim etilgan hisobvara-q-fakturalarda ko'rsatilgan qo'shilgan qiymat solig'ining 20 foizi miqdoridagi mablag'ni respublika byudjeti hisobidan subsidiya sifatida qaytarish taklifi asoslangan;

Samarqand viloyatiga kiruvchi xorijiy turistlar soniga ta'sir etuvchi omillarning tahlili asosida hududiy turizmni strategik rivojlantirishning 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha amaliy tavsiyalar asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turizmni strategik rivojlantirish strategiyalarining ko'p mezonli tasnifi (maqsad yo'nalishi, amal qilish davri, hududiy qamrovi, raqobat ustunligi, ijtimoiy yo'naltirilganligi) tizimli shaklda taklif etildi va ular asosida O'zbekistonda qabul qilingan strategik me'yoriy hujjatlar evolyutsiyasi tahlil qilindi;

transport-logistika tizimini takomillashtirish va transport infratuzilmasini yanada yaxshilash maqsadida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari asosida temir yo'l qatnovlarida ko'rsatiladigan xizmatlar va temir yo'l vagonlarini tadbirkorlik subyektlariga berish mexanizmlarini joriy qilish bo'yicha takliflar asoslangan;

turizmga ta'sir etuvchi omillarning sakkizta kompleks guruhi (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, infratuzilma, texnologik, ekologik, marketing, boshqaruv) ekspert balli baholash usulida hududiy darajada tartiblandi va ularning ta'sir darajalari reytinglashtirildi;

kadrlar salohiyati va marketingni integratsiyalagan kompleks strategiya ishlab chiqildi: amaliyot-orientirli o'quv dasturlari, xalqaro sertifikatlash, "Visit Samarkand" global brendi uchun segmentlangan kontent-marketing va HR-marketing sinergiyasini ta'minlaydigan yo'l xaritasi tayyorlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. Tadqiqot natijalarining ishonchiligi qo'llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqqligi, axborotlarning rasmiy manbalaridan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari manbalaridan olingani, tegishli xulosa va takliflar amalda sinovdan o'tkazilganligi, natijalardan vakolatli davlat organlari tomonidan foydalanish ma'qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ilmiy tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy-metodologik

taklif va tavsiyalar turizm sohasida iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshirishga, milliy turizm mahsulotining jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga hamda tahlil qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan respublikada turizm xizmatlar bozorini rivojlantirishda, investitsiyalarni samarali jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda, turizm sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan kompleks maqsadlarni, hududlardagi turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi muassasalar faoliyatini takomillashtirishga doir tadbirlarni ishlab chiqishda, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlar, maqsad va vazifalarini bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muayyan darajada xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mamlakatimizda turizm sohasida iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Samarqand viloyatida turizm sohasidagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yo'lga qo'yishda, har yili 22 ta mehmonxona, 49 ta oilaviy mehmon uyi, 5 ta xostel va 3 ta boshqa turdagi joylashtirish vositalari faoliyatini tashkil etish maqsadida Payariq, Samarqand, Tayloq va Urgut tumanlaridagi eng ko'p turistlar tashrif buyuradigan obyektlarda mavjud shart-sharoitlarni o'rganish va uning natijasidan kelib chiqib kamchiliklarni bartaraf etish haqida takliflarni "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tomonidan tayyorlash asosida "Choshtepa" turizm maskanini ishga tushirish, "Mironqul" MFY hududida ekoturizm dam olish maskani faoliyatini yo'lga qo'yish, "Omonqo'ton" MFY hududida dam olish maskanini tashkil etish bo'yicha asoslangan takliflar 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Samarqand viloyatida turizmni rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar"dagi "Rejasi"ga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 2-iyuldagi 03-10-17-5855-sonli dalolatnomasi). Natijada Samarqand viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalangan holda viloyatga tashrif buyuruvchi turistlar oqimini 1,4 baravar oshirish imkoniyatlari asoslangan;

turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada yaxshilash maqsadida joylashtirish vositalari, oilaviy mehmon uylari, sanatoriy va pansionatlar xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil qilish uchun turizm sohasidagi nodavlat ta'lim tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlarga har yili 2 milliard so'mgacha grant mablag'larini ajratish bo'yicha dalillangan takliflar 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Turizm sohasidagi resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hamda mavjud muammolarni tezkor hal etish bo'yicha" "Yo'l xaritasi"ga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 2-iyuldagi 03-10-17-5855-sonli dalolatnomasi).

Natijada turistlarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini 10 % oshirish imkoniyatlari dalillangan;

respublikaning turizm salohiyatidan hamda mavjud resurslar va imkoniyatlardan to'liq va samarali foydalanish, turizm sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida turoperatorlar tomonidan ko'rsatilayotgan turizm xizmatlari bo'yicha xorijiy hamkorlarga taqdim etilgan hisobvaraqa-fakturalarda ko'rsatilgan qo'shilgan qiymat solig'ining 20 foizi miqdoridagi mablag'ni respublika byudjeti hisobidan subsidiya sifatida qaytarish bo'yicha dalillangan takliflar 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Turizm sohasidagi resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hamda mavjud muammolarni tezkor hal etish bo'yicha" "Yo'l xaritasi"ga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 2-iyuldagi 03-10-17-5855-sonli dalolatnomasi). Natijada Samarqand viloyatiga 2,55 mln xorijiy turistlarni jalb etish imkoniyatlari dalillangan;

Samarqand viloyatiga kiruvchi xorijiy turistlar soniga ta'sir etuvchi omillarning tahlili asosida hududiy turizmni strategik rivojlantirishning 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha asoslangan amaliy tavsiyalar Turizm qo'mitasi tomonidan qabul qilgan "2025-2030-yillarda hududlarning turizm salohiyatini izchil o'rganish natijasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar" dasturi va "Yo'l xaritalari"ga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 2-iyuldagi 03-10-17-5855-sonli dalolatnomasi). Natijada strategik rivojlanishning optimistik, realistik va pessimistik ssenariylarni taqqoslash imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, respublika miqyosidagi 2 ta va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 4 ta ilmiy maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 125 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan

natijalarining ilmiy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Hududiy turizmni strategik rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari”** masalalariga bag'ishlangan. Mazkur bobda hududiy turizmning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, hududiy turizm industriyasini rivojlantirish strategiyalari tasnifi va O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha strategiyalar xronologiyasi haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, hududiy turizmni strategik rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalarga ham asosiy e'tibor qaratilgan.

Hududiy turizm deganda muayyan hudud (viloyat, shahar, qishloq yoki alohida turistik zona) chegarasida rivojlanadigan turistik mahsulotlar, turistik infratuzilma, xizmatlar klasterlari, tabiiy, madaniy-tarixiy resurslar hamda ushbu hududda xizmat ko'rsatuvchi barcha tashkilotlar jamlanmasi tushuniladi⁶. Bunda hududdagi tabiiy landshaftlar, tarixiy yodgorliklar, milliy an'analar, madaniy meros obyektlari va boshqa ko'rsatkichlar asosiy turistik resurs sifatida namoyon bo'ladi⁷. Hududiy turizm darajasida esa, strategiya tushunchasi hududning turistik resurslaridan kompleks asosda foydalanish, infratuzilma va xizmatlar tizimini barqaror o'stirish, hamda ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan uzoq muddatli strategik chora-tadbirlar tizimini anglatadi⁸.

Ishda hududiy turizmning rivojlanishiga ko'plab omillar ta'sir etishi ham ochib berilgan bo'lib, ular asosan shartli ravishda ichki (endogen) va tashqi (ekzogen) omillarga ajratib o'rganilgan. Jumladan, endogen omillarga tabiiy resurslardan foydalanish, madaniy va tarixiy meros tajribalari, infratuzilmalarning muntazam va barqaror rivojlanishi, mahalliy aholi salohiyatining o'sib borishi kabilarni kiritish mumkin. Ekzogen omillarga esa davlat siyosati, jumladan, turizmni rivojlantirish uchun qabul qilinayotgan qonunlar, strategiyalar, dasturlar, subsidiyalar, rezidentlar va chet ellik investorlar uchun berilayotgan imtiyozlar muhim ahamiyat kasb etadi⁹. Shuningdek, xalqaro munosabatlar, raqobat muhiti, global iqtisodiy tendensiyalar ham ekzogen omillarga safiga kiritiladi va hududiy turizmga ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy ishda O'zbekistonda hududiy turizmni rivojlantirish xronologiyasini 4 davrga bo'lib o'rganilgan (1-rasm).

Turizm sanoati rivojlangan xorijiy davlatlar hududiy turizmni asosan klasterlash, marketing va brending, raqamlashtirish, barqaror turizmni joriy etish hamda davlat-xususiy sherikchiligi kabi strategiyalardan foydalangan holda rivojlantiradi. Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan strategiyalar doirasida bir qator tizimli va kompleks o'zgarishlar, jumladan, vizasiz rejim joriy etilgan davlatlar sonining

⁶ Muallif ta'rifi.

⁷ Hall, C. M. "Tourism and Regional Development: Issues and Case Studies". Routledge, 2008.

⁸ Dwyer, L., & Edwards, D. (2010). *Planning for sustainable tourism: A strategic approach*. Tourism Management, 31(1), 21–32

⁹ O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni. (Qabul qilingan 2019-yil).

ortib borishi, turizm klasterlarining tashkil etilishi mamlakatning xalqaro sayyohlik bozorida raqobatbardoshligini oshirish, hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini yaxshilash va yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qilmoqda.



1-rasm. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish bo‘yicha strategiyalar xronologiyasi¹⁰

1-jadval

O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish strategiyalari natijalari

¹⁰ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

(2020-2024-yillar)¹¹

Ko'rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	O'sish surati 2020-yilga nisbatan (foizda)
Vizasiz rejim joriy etilgan davlatlar soni	86	86	90	93		8,14 %
Xususiy sektor investitsiyalari (mln. dollar)	50	120	200	900 dan ortiq	200	300%
Yangi ish o'rinalari (ming)	10	20	22	70	58	480%

Hududiy turizmni strategik rivojlantirish ma'lum bir mintaqada turizmni rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli rejalar va tashabbuslarni yaratishni o'z ichiga oladi. Bu jarayon, odatda, mintaqaning noyob diqqatga sazovor joylarini aniqlash, mahalliy biznes va davlat tuzilmalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, turistlarni jalb qilish bo'yicha marketing strategiyalari, infratuzilmani yaxshilash va mintaqada turizmning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlash uchun barqarorlik tashabbuslarini qamrab oladi. Mazkur jarayonlarni xorijiy tajribani o'rgangan holda amalga oshirish esa hududiy turizmning mamlakat sanoatida roli va ahamiyatini oshirib beradi.

Dissertatsiyaning "**Hududiy turizmning hozirgi holati va strategik rivojlanish tendensiyalari**" nomli ikkinchi bobida Samarqand viloyatida hududiy turizmning amaldagi rivojlanish darajasi chuqur tahlil qilingan hamda ko'rsatkichlar tizimi batafsil tavsiflangan. Ushbu bobda hududiy turizm infratuzilmasi, xizmatlar bozori, turistlar oqimining dinamikasi, transport-logistika tizimi, kadrlar salohiyati va xizmat ko'rsatish sifatiga oid masalalar kompleks o'rganilgan.

Tahlil jarayonida Samarqand viloyatining Urgut, Toyloq, Payariq va Samarqand tumanlari misolida turizm xizmati bozorining joriy holati baholangan. Har bir tumanda turistik oqimning hajmi va tuzilmasi, mavjud va istiqbolli infratuzilma obyektlari, mehmonxona fondi, umumiy ovqatlanish va ko'ngilochar maskanlar, transport va logistika imkoniyatlari chuqur tahlildan o'tkazilgan. Shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimining holati, xizmat ko'rsatish madaniyati, marketing va brending ishlari, investitsion muhit hamda turizm sohasida davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlari baholangan. Olingan natijalar asosida hududlarning strategik rivojlanish tendensiyalari, ya'ni turizm turlarining diversifikatsiyasi, mavsumiylikni kamaytirish, yangi turistik yo'nalishlar va mahsulotlarni yaratish kabi ustuvor yo'nalishlar aniqlangan.

2-jadval

Samarqand viloyatida turizm sohasining asosiy ko'rsatkichlari

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, turizm sohasiga oid ochiq ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi (2020-2024-yillar).

(2020-2024-yillar)¹²

Ko'rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	O'sish surati 2020-yilga nisbatan (%)
Xorijiy turistlar soni (ming kishi)	152,0	119,0	1,204,2	2,153	2,500,0	1544,74 %
Ichki turistlar soni (ming kishi)	51,9	1,943	4,247,0	4,500,0	4,700,0	8955,88 %
Turizm daromadlari (mln. doll.)	8,4	79,6	197,6	405,9	500	5852,38 %
Mehmonxonalar soni	160	112	128	161	173	8,13 %
Turizm sohasi bo'yicha bandlik (ming kishi)	18,6	24,1	49,9	54,9	58,9	216,67 %

Ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, 2020-2021-yillarda pandemiya ta'sirida xorijiy turistlar soni juda past bo'lgan. Ammo, 2022-yildan boshlab turizm tez sur'atlarda tiklana boshlagan - 2022-yilda 10 baravardan ko'proq o'sish kuzatilgan. 2023 va 2024-yillarda bu ko'rsatkich barqarorlashib, biroz o'sishga erishilgan (2,153 → 2,500,0 ming kishi). Ichki turizm pandemiyadan so'ng keskin tiklangan. 2022-yildan boshlab ichki turistlarning soni sezilarni o'sib borganini ko'rish mumkin (4,247,0). Bu ko'rsatkich yildan-yilga barqaror o'sib borib, 2024-yilda to'rt yarim milliondan ortiq ichki turistlar qayd etildi. Daromadlar pandemiyadan keyin tiklanibgina qolmay, har yili ikki baravarga yaqin o'sib bordi. 2020-yildan 2024-yilgacha 59 baravardan ortiq ko'paygan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, Samarqand viloyatida 2020-2024-yillarda turizm sektori sezilarli rivojlanib, nafaqat tashqi turistlar oqimini, balki ichki turistlar soni ham keskin oshdi. Daromadlar hajmining ko'payishi va bandlikning ortishi hududning iqtisodiy barqarorligiga sezilarli hissa qo'shdi. Shu bilan birga, joylashtirish vositalarining sonini oshirish bilan bir qatorda ularning sifatini yanada yaxshilash, xizmat ko'rsatishning innovatsion usullarini keng joriy etish kelgusi strategik vazifalar sifatida dolzarbligini saqlab qoladi.

Samarqand viloyati Turizm boshqarmasi, tuman hokimliklari va mehmonxonalar tomonidan taqdim etilgan rasmiy statistik ma'lumotlarga asoslanib tuzilgan 3-jadvalda 2020–2024-yillar oralig'ida viloyatning barcha tumanlari bo'yicha turistlar oqimining tahlili keltirilgan. Ushbu tahlil nafaqat umumiy ko'rsatkichlar dinamikasini, balki har bir tumanda turizm rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini, mavsumiy tebranishlarni va ichki hamda tashqi turizm oqimlari nisbatidagi o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi.

3-jadval

¹² Samarqand viloyati hokimligi, viloyat statistika boshqarmasi, Samarqand viloyati turizm boshqarmasi (2017-2024).

**2020–2024-yillarda Samarqand viloyati tumanlari bo‘yicha turistlar oqimi
(ming kishi)¹³**

Tuman/Shahar	2020	2021	2022	2023	2024	O‘shish surati 2020-yilga nisbatan (%)
Samarqand shahri	17,6	25,0	35,0	50,0	60,0	240
Urgut tumani	2,0	3,0	4,5	6,0	7,5	275
Payariq tumani	1,5	2,0	3,0	4,0	5,0	233
Nurobod tumani	0,5	1,0	1,5	2,5	3,5	600
Qo‘shrabot tumani	0,3	0,5	1,0	1,5	2,0	566
Toyloq tumani	0,8	1,2	1,8	2,5	3,0	275
Pastdarg‘om tumani	1,0	1,5	2,0	2,8	3,5	250
Oqdaryo tumani	0,7	1,0	1,5	2,0	2,5	257,14
Bulung‘ur tumani	0,6	0,9	1,3	1,8	2,2	266,67
Kattaqo‘rg‘on shahri	1,2	1,8	2,5	3,5	4,5	275
Jomboy tumani	0,9	1,3	1,8	2,4	3,0	233,33
Ishtixon tumani	0,8	1,1	1,6	2,2	2,8	250
Narpay tumani	0,4	0,6	0,9	1,2	1,5	275
Paxtachi tumani	0,5	0,7	1,0	1,4	1,8	260
Samarqand tumani	1,0	1,5	2,2	3,0	3,8	280

Jadval tahlilidan ko‘rish mumkinki, eng yuqori o‘shish kuzatilgan hududlardan Nurobod tumani – 600% va Qo‘shrabot tumani – 566% bo‘lgan. Urgut, Toyloq, Kattaqo‘rg‘on shahri, Narpay, Paxtachi tumanlarida barqaror o‘shish kuzatilgan. Viloyatda eng yuqori o‘shish ko‘rsatkichi Samarqand shahriga to‘g‘ri kelib, 60 ming turist tashrif buyurgan.


Turistlar oqimining dinamik grafigida yillar kesimida har bir tumanda o‘shish suratlari yaqqol ko‘rsatilgan bo‘lib, 2020–2024-yillar oralig‘ida viloyatdagi barcha hududlarda turizm sohasida sezilarli faollik va o‘shish kuzatilganini ko‘rish mumkin. Bu esa o‘z navbatida mahalliy byudjet tushumlarining oshishi, aholining bandligini ta‘minlash, tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi, transport va muhandislik infratuzilmasining rivojlanishi, madaniy almashinuv jarayonlarining kuchayishi kabi ko‘plab ijobiy iqtisodiy va ijtimoiy samaralarga olib kelishi asoslangan. Shuningdek, mazkur bobda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi PQ-135-son qarori bilan belgilangan yo‘l xaritasiga muvofiq Samarqand, Urgut, Toyloq va Payariq tumanlarida turizm klasterlash imkoniyatlari baholangan.

Mazkur tumanlarda turizm sohasidagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kengaytirish va infratuzilmani rivojlantirish yuzasidan viloyatning Payariq, Samarqand, Toyloq va Urgut tumanlarida turistlar eng ko‘p tashrif buyuradigan obyektlar atrofida mavjud shart-sharoitlar o‘rganilib, turizm infratuzilmasini yaxshilash loyihalari asosida hududlarda turizmga ixtisoslashgan maskanlarni tashkil etish rejasi amalga oshirilmoqda. Xususan, dissertatsiyaning mazkur bobida

¹³ Samarqand viloyati Turizm boshqarmasi, 2024-yil tahlil ma‘lumotlari.

“Choshtepa” turizm maskanini ishga tushirish (Payariq tumani), “Mironqul” mahallasida ekoturizm dam olish maskani faoliyatini yo‘lga qo‘yish (Samarqand tumani) va “Omonqo‘ton” mahallasida yangi dam olish maskanini barpo etish loyihalari ilmiy asoslangan.

Bobda hududiy turizmni strategik rivojlantirishda turli xil strategiyalariga ham urg‘u berilgan. Jumladan, hududiy turizmni rivojlantirish strategiyalariga Ixtisoslashuv, Differensiyatsiya, Integratsiya, Klasterlash, Innovatsion rivojlanish, Brending va imij yaratish va Public-Private Partnership (PPP) kabi strategiyalar yoritilgan.



2-rasm. Hududiy turizmni rivojlantirishda qo‘llaniladigan strategiyalar tasnifi¹⁴

Mazkur strategiyalar viloyat hududlarining joylashuvi, mavjud resurslari, turistlar oqimining barqarorligi, turizm industriyasining bilvosita va bevosita tashqi muhiti omillari ta‘siridan kelib chiqib tadbiiq etiladi. Xususan, ishda hududiy turizmni strategik rivojlantirishda Samarqand viloyati hududlarida differensiyatsiya strategiyasini qo‘llash imkoniyatlari dalillangan. Turizmda differensiyatsiya strategiyasi – bu har bir turistik hududning o‘ziga xos resurslariga asoslangan holda, raqobatchilardan ajralib turuvchi turistik mahsulot va xizmatlarni shakllantirishni anglatadi. Ushbu strategiya orqali Samarqand viloyatining har bir tumani yoki shahri o‘zining noyob turistik imkoniyatlarini namoyon etish orqali maqsadli turist segmentini jalb etadi.

4-jadval

¹⁴ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Samarqand viloyati hududlarida differensiyatsiya strategiyasini qo'llash imkoniyatlari, ball tizimiga asosan¹⁵

Tuman/Shahar	Madaniy-tarixiy turizm	Ziyorat	Gastro-nomik	Kongress (MICE)	Ekoturizm	Agroturizm	Etnoturizm	Tog' turizmi	Ekstremal turizm	Rekreatsion turizm	Shahar (city) turizmi	Tibbiy turizm	Sport turizm	Ball (1-10)
Urgut tumani	7	9	9	2	9	9	8	9	7	9	3	3	8	7
Samarqand shahri	10	9	8	10	6	5	7	4	6	9	10	7	8	8
Payariq tumani	6	9	7	5	8	9	6	7	5	7	5	5	6	6
Tayloq tumani	6	8	6	4	9	8	7	9	6	8	5	4	6	7
Past Darg'om tumani	5	7	5	3	6	6	4	5	3	6	3	4	4	5
Kattaqo'rg'on shahri	5	6	7	5	4	4	3	4	4	5	4	5	3	4
Ishtixon tumani	4	6	6	3	6	5	3	5	3	4	4	4	3	4
Bulung'ur tumani	4	5	4	2	5	6	4	4	2	4	3	3	3	4
Jomboy tumani	4	4	4	2	5	5	4	3	2	4	3	2	4	3
Oqdaryo tumani	3	4	4	2	5	4	5	4	2	3	3	2	3	3
Narpay tumani	3	4	3	2	4	5	4	3	1	3	3	2	2	3
Paxtachi tumani	3	4	3	2	4	4	5	4	1	2	3	2	2	3


Tahlil natijalariga ko'ra, 1-10 ballik mezonda eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahri (8 ball) ga tegishli bo'lib, bu yerda madaniy-tarixiy, ziyorat, MICE, gastronomik, shahar va rekreatsion turizm rivojlanganini ko'rish mumkin. Urgut (7 ball) va Payariq (6 ball) agro-, etno-, eko- va tog' turizmi bilan ajralib turadi. Tayloq, Kattaqo'rg'on, Bulung'ur, Jomboy va Ishtixon o'rtacha natijaga ega bo'lib, qishloq, sog'lomlashtirish va sport turizmi ustun hisoblanadi. Eng past ball Narpay va Paxtachiga (3 ball) to'g'ri kelgan.

Dissertatsiyaning mazkur bobida turizm sohasida kadrlar salohiyatini oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilash hamda transport-logistika imkoniyatlarini takomillashtirish bo'yicha ham amaliy tavsiyalar berib o'tilgan. Xususan, Samarqand viloyatida mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari, sanatoriy va pansionatlar kabi joylashtirish vositalari xodimlarining malakasini oshirish maqsadida maxsus o'quv kurslarini tashkil etish rejalari ishlab chiqildi. Jumladan, soha vakillari uchun xorijiy tillar, servis madaniyati va mehmonxona boshqaruvi bo'yicha trening va qisqa kurslar grafigi ishlab chiqildi va amalga tadbiq qilindi. 2024-yilda "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining professor-o'qituvchilari tomonidan maxsus treninglar o'tkazilinishi, ularda viloyatdagi 50 ga yaqin mehmonxona ma'muriyati va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar ishtirok etdi.

Ishda transport-logistika imkoniyatlarini takomillashtirish va turizm xizmatlar hajmini oshirish yuzasidan Samarqand viloyatida turistlarning kelishi va harakatlanishi uchun qulay transport sharoiti yaratish maqsadida bir qator innovatsion yondashuvlarni joriy etish, jumladan, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmi asosida temir yo'l qatnovlarida ko'rsatiladigan xizmatlarni va temir yo'l

¹⁵ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

yo‘lovchi vagonlarini tadbirkorlik subyektlariga berish tartibi joriy qilinishi ochib berilgan.



3-rasm. Turizmda transport xizmatlarini takomillashtirish yo‘nalishlari¹⁶

Turizm xizmatlari hajmi tarkibida transport xizmatlari (avia, temiryo‘l, avtobus) ulushi hisoblangan. 2024-yil uchun turizm xizmatlari eksporti 537 mln AQSh dollariga (taxminan 5,9 trln so‘m) teng bo‘lgan. 3-rasmdan xulosa qilish mumkinki, 2023-yil davomida Samarqand aeroportida haftalik ichki va xalqaro aviaqatnovlar soni 100 taga yetkazildi, shuningdek, Samarqand – Toshkent – Samarqand yo‘nalishida qo‘shimcha tezyurar poezd qatnovlari tashkil etildi. Xususan, 2022-yilga nisbatan 2026-yilga kelib haftalik aviaqatnovlar soni 2 baravarga (50 tadan 100 taga), tezyurar poezd yo‘nalishlari soni 1 tadan 3 taga yetkazilgan. Temir yo‘l sohasida xususiy xizmat ko‘rsatuvchilar soni ortgan. Transport xizmatlari hajmi 200 mlrd. so‘mdan 320 mlrd. so‘mga, transport xizmatlarining umumiy turizm xizmatlaridagi ulushi 25 foizdan 30 foizgacha o‘sgan. Avtobus va temir yo‘l chiptalarini rasmiylashtirish bo‘yicha elektron platformalar ham takomillashtirilib, turistlar uchun transport xizmatlaridan foydalanish yanada osonlashtirildi. Bu kabi choralar turistlar vaqt va mablag‘ini tejab, ko‘proq yo‘nalishlarni qamrab olish imkonini berdi.

Dissertatsiyaning mazkur bobida turoperatorlarga subsidiya mexanizmi orqali xorijiy turistlarni jalb etish amaliyoti ham dalillangan. Unga muvofiq, turoperator xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 nafar va undan ortiq xorijiy norezident turistlarga kompleks turpaket xizmatlari ko‘rsatilganda (joylashtirish, transport, ekskursiya va ovqatlanishni o‘z ichiga olgan) – bunday

¹⁶ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

turpaket uchun chet ellik hamkorlarga yuboradigan hisobvaraq-fakturada ko'rsatilgan qo'shilgan qiymat solig'ining 20 foizi respublika byudjetidan subsidiya tariqasida qaytariladi. Shuni qayd etish kerakki, mazkur taklif 2023-yil 26- apreldagi PQ-135-son "Turizm sohasidagi resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hamda mavjud muammolarni tezkor hal etish bo'yicha yo'l xaritasi"ga ilmiy asoslangan taklif sifatida kiritildi va 2023-yildan sifatida amalga oshirila boshlandi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Hududiy turizm industriyasini strategik rivojlantirish usullari samaradorligini oshirish yo'nalishlari**"ga bag'ishlangan bo'lib, unda hududlararo benchmarking metodologiyasi asosida turizm sektorini baholash va rivojlantirishning ilmiy-amaliy asoslari yoritilgan.

Mazkur bobda ishlab chiqilgan metodologiya asosida hududlararo taqqoslash asosiy indikatorlar majmuasi bo'yicha amalga oshirilgan. Bunga turistik sayohatlar ulushi, mehmonxona infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi, yalpi hududiy mahsulot (YaHM) o'sish sur'ati (%), hudud iqtisodiyotining umumiy rivojlanish sur'atlari, ayniqsa, turizm sektorining YaHMga qo'shgan hissasi kabi ko'rsatkichlar kiritilgan. Ushbu indikatorlar hududning turistik salohiyati, iqtisodiy barqarorligi va infratuzilma imkoniyatlarini kompleks baholash imkonini beradi.

Tahlil jarayonida har bir hududning mavjud resurslari, turizm xizmatlari ko'lami va sifati, logistika va transport tizimi, marketing salohiyati hamda mahalliy boshqaruv samaradorligi kabi mezonlar hisobga olingan holda, ularning raqobatbardoshlik darajasi aniqlangan. Olingan natijalarga muvofiq hududlar guruhlariga ajratilib, har bir guruh uchun moslashtirilgan strategik rivojlantirish tavsiyalari ishlab chiqilgan.

